

UMUMTA'LIM MAKTAB TIZIMIDA AKSIOLOGIK  
YONDASHUVGA ASOSLANGAN BAHOLASH TA'LIM  
SIFATI VA SAMARADORLIGI OMILI

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti,  
Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi*

*2-bosqich magistranti*

*Raxmatullayeva Charos Sherzod qizi*

*Email: [craxmatullayeva044@gmail.com](mailto:craxmatullayeva044@gmail.com)*

***Annotasiya:** Ushbu maqola umumta'lim maktablari tizimida ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishda aksiologik yondashuvga asoslangan baholashning muhim omil sifatidagi rolini nazariy jihatdan asoslaydi.*

***Kalit so'zlar:** Aksiologik yondashuv, aksiologik baholash, ta'lim sifati, ta'lim samaradorligi, qadriyatli loyihalash, kompetensiya bilish faolligi, pedagogik aksiologiya.*

***Аннотация:** Данная статья теоретически обосновывает ключевую роль аксиологического подхода к оцениванию как важного фактора повышения качества и эффективности образования в системе общеобразовательных школ.*

***Ключевые слова:** Аксиологический подход, аксиологическое оценивание, качество образования, эффективность образования, ценностное проектирование, компетенция, познавательная активность, педагогическая аксиология.*

***Abstract:** This article theoretically substantiates the crucial role of an axiological approach to assessment as a significant factor in improving the quality and effectiveness of education within the general secondary school system.*

*Keywords: Axiological approach, axiological assessment, quality of education, educational effectiveness (or educational efficiency), value-based designing (or Axiological projection), competence, cognitive activity, pedagogical axiology.*

**KIRISH.** Baholash yangi bilimlarni o'qitish va o'rganishni yaxshilashga, ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiladigan muhim omil hisoblanadi. Agar baholash ko'rsatkichlaridan to'g'ri qaror va choralar ishlab chiqilsa, bu ta'lim sifatida yaxshi natijalarga erishishga, sifatning oshishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi farmoni, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-son "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorida maktablardagi o'quv dasturi va darsliklariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish kabi vazifalar bilan bir qatorda o'quvchilar bilimni baholashning yangi usul va tartibi, baholash yordamida o'quvchilarning o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, tanqidiy fikrlash va berilgan ma'lumotlarni tahlil qila olish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan vazifalar ham belgilab qo'yilgan. Respublikamizda milliy, umuminsoniy, maq'naviy, shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning ayrim pedagogik jihatlari B.Adizov, Sh.Mardonov, B.Xodjayev, M.Quronov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Aksiologiya falsafaning mustaqil sohalaridan biridir. Mazkur tushuncha adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Aksiologiya yunoncha so'z bo'lib, axio - qadriyat, logos - ta'limot, so'z, ya'ni qadriyatlar haqidagi ta'limot ma'nosini bildiradi [6:26]. Baholash yangi bilimlarni o'qitish va o'rganishni yaxshilashga, ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiladigan muhim omil hisoblanadi. Agar baholash ko'rsatkichlaridan to'g'ri qaror va choralar ishlab chiqilsa, bu

ta'lim sifatida yaxshi natijalarga erishishga, sifatning oshishiga olib keladi. Shuni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, nimani baholash va qanday samarali baholashni tashkil etish masalalari murakkab jarayondir. Agrey [2:38(3)]. baholashni o'quvchilarning o'rganishga jalb etilishi va ularning o'qishga nisbatan mas'uliyatli yondashuvini rag'batlantiruvchi muhim vosita sifatida ko'radi.

**ASOSIY QISM.** O'quv faoliyati natijalarini baholashning aksiologik jihati shunchaki bilim, ko'nikma va malakalarni o'lchashdan farqli o'laroq, shaxsda qadriyatli munosabat, aksiologik ong va xulq-atvorning shakllanish darajasini aniqlashga qaratilganini ko'rsatadi. Qadriyatli baholashning maqsadi – insoniylikni tarkib toptirishdir. Shunday ekan, o'quvchining faoliyatini baholash uning qanchalik materialni o'zlashtirganligini emas, balki bu bilimlar uning ma'naviyatini, qadriyatli xulq-atvorini va oliyjanobligini shakllantirishga qanchalik xizmat qilganini tekshirishga yo'naltirilishi lozim. Pedagogik aksiologiyaning predmetini shaxsning aksiologik ongi, aksiologik munosabati, aksiologik xulq-atvorini shakllantirish deb qabul qilingan. [6:6] Shundan kelib chiqib ayta olish mumkinki, o'quvchilarning natijalari aynan shu uchta komponent -- ong, munosabat, xulq-atvor nuqtai nazaridan baholanishi kerak. Baholash ularning o'z-o'ziga va atrof-muhitga bo'lgan munosabatidagi qadriyatli o'zgarishlarga guvohlik berishi zarur.

Baholash jarayoni pedagogik aksiologiyaning o'ziga xos funksiyalarini aks ettirishi orqali qadriyatli tus oladi:

1. Baholovchi funksiya orqali o'quvchilarning nafaqat bilimlarini, balki borliq va ma'naviy hodisalarni adekvat (haqiqiy qadriyatlarga mos) baholash ko'nikmasini qanchalik darajada egallaganligi o'lchanadi.

2. Yo'naltirish funksiyasi baholash natijalari o'quvchiga uning "qadriyatlar ierarxiyasi" qanchalik amaliy, kasbiy va shaxsiy anglatish imkoniyatini beradi.

3. Mazmunli muvofiqlik funksiyasi baholash orqali o'quvchining shaxsiy fikri, intellektual tashabbusi va axborotni tanqidiy mushohada etish qobiliyatini rag'batlantiradi.

Nazorat qiluvchi funksiyasi orqali baholash o'quvchida qadriyatga yo'nalganlikning madaniy-tarixiylik kontekstida rivojlanishini nazorat qilishni ta'minlaydi. Har qanday jamiyatning ijtimoiy odilligi unda umuminsoniylik mezonlariga amal qilinishi, pirovard natijada inson qadrining qay darajada ekanligi, shaxsning individual qadriyatlarni namoyon qilishi uchun imkoniyatlar yaratilganligi bilan bog'liq. Insonning o'zi ijtimoiy tizim bo'lgani kabi, uning shaxsiy–individual qadriyatlari ham yakka aksiologik tizimdir [5: 157] Demak, dastavval aksiologik munosabat (modallik) insonga nisbatan berilayotgan baho munosabatida o'z aksini topib, “qiymat” tushunchasi bilan yaxlitlikda namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning o'quv faoliyati natijalarini baholashning aksiologik jihatlari pedagogik aksiologiyaning ilmiylik, amaliylik va tajribaviylik (praktik) jihatlari orqali to'liq ochib beriladi. Qadriyatlar- voqelikdagi muayyan hodisalarning qiymatini belgilash uchun xizmat qiluvchi falsafiy kategoriya bo'lib, u mazkur hodisaning subyekt tomondan aks ettirilishi natijasida paydo bo'ladi [3:434]. Baholash jarayonida o'quvchida aksiologik ongni, ya'ni obyektiv borliqni ma'naviy qadriyatlar dunyosi sifatida aks ettirish shaklini rivojlantirish asosiy o'rin tutadi. Baholash faoliyati o'quvchida ta'lim-tarbiya jarayonining qadrini anglashga xizmat qilishi kerak.

O'quv natijalarini baholashda qadrlash tuyg'usi (aksiologik ongning eng asosiy komponenti) namoyon bo'lishi muhim, ya'ni o'quvchi o'zining va o'zgalarning o'quv yutuqlari qadrini anglash, mas'uliyat hissini sezish orqali zavq olishni o'rganadi. Baholash qadriyatli ustanovkalarini (qadriyatli yo'nalishni belgilovchi psixik holat) shakllantirishga imkon beradigan sharoit yaratish uchun xizmat qilishi lozim. Bu, o'quv natijasi orqali o'quvchining o'z faoliyati va xulq-atvorini jamiyat qadriyatlari asosida mo'ljalga olishiga

yordam beradi. Natijalarning aksiologik baholashi o'quvchining aksiologik yo'nalganlikni, ya'ni aniq qadriyatlarga yo'nalganlikni kuchaytiradi. Shu o'rinda aksiologik modallik va aksiologik baho falsafiy terminlarining o'xshash va farqli jihatlariga bir oz to'xtalsak. "Voqelikka, undagi narsa va hodisalarga nisbatan qadriyatli munosabat va hamda ularni qadrlash tuyg'usi asosida shakllangan hukm va xulosalar aksiologik bahoda aks etadi... aksiologik baholash narsa, hodisa yoki jarayonning iqtisodiy qiymatini, foydaliligini belgilash orqali emas, balki uning sub'ekt ma'naviy olami uchun qanday ahamiyat kasb etishini aniqlash orqali amalga oshadi" [4:85].

Insonning ijtimoiy faolligi va qobiliyati uning barcha muvaffaqiyatlarining kafolatidir. Chunki har bir inson faqat o'z mehnati, ishtiyoqi va xohishi bilan faol bo'ladi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiyalamasin, agar o'quvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Axir, barcha ma'naviy va axloqiy nuqsonlarning asosiy sababi – insonning o'z faoliyatini va qadriyatlarini to'g'ri boshqara olmasligidir. [1:5]. Qadriyatning baholashdagi asosiy funksiyasi o'quv natijalarini baholashda obyektning shaxs va insoniyat uchun ijobiy qiymatini, shuningdek, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihatini ifodalaydi. Baholash orqali o'quvchining mehnati, o'zlashtirgan bilimlari va rivojlangan ko'nikmalari inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmui sifatida baholanadi.

**XULOSA.** Qadriyatning baholashdagi asosiy funksiyasi o'quv natijalarini baholashda obyektning shaxs va insoniyat uchun ijobiy qiymatini, shuningdek, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihatini ifodalaydi. Baholash orqali o'quvchining mehnati, o'zlashtirgan bilimlari va rivojlangan ko'nikmalari inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmui sifatida baholanadi. Bu, o'quv faoliyatiga nisbatan amaliy va emotsional munosabatni ta'riflashga, ya'ni o'quvchining o'z yutuqlarini qadrlashiga olib keladi.

Aksiologik baholash o'quvchida kelajakka bo'lgan hayotiy intilishlar, mavjud hayot uchun mo'ljalni ola bilish va o'tmish, umumahamiyatlilikni oqlashni o'z ichiga olgan qadriyatli loyihalash shakl va usullarini rivojlantirishga qaratilgan ta'limotdir. Ya'ni, baholash faqat o'tgan bilimlarni qayd etish emas, balki o'quvchining kelajakdagi maqsad va manfaatlariga xizmat qiladigan shaxsiy-ma'naviy omillarni rag'batlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Aksiologik baholash o'quvchida qadriyatli loyihalash qobiliyatini rivojlantirish orqali uni bilish faoliyatining reproduktiv darajasidan ijodiy kompetensiya darajasiga ko'taradi. Shunday qilib, baholash tizimi o'quvchining jamiyat talablariga mos, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishining muhim omili bo'lib xizmat qiladi, bu esa pirovardida ta'limning nafaqat sifatini, balki ijtimoiy samaradorligini ham oshiradi. Xulosa qilib aytganda, aksiologik baholashni maktab tizimiga integratsiyalash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqishni talab etadi. Bu yangilanish ta'lim mazmuni va metodlarining uzviy bog'liqligini mustahkamlaydi, yakunda esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirgan, ijodiy va hayotiy qobiliyatga ega shaxsni tarbiyalashga erishishning fundamental sharti hisoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. B. Xodjayev, J. Mekhmonova Assessment of axiological potential in future teachers and their indicators. Educational research in universal sciences ISSN: 2181-3515/ 2023.
2. L. Agrey. (Spring, 2004). The Pressure Cooker in Education: Standardized Assessment and High-Stakes. Canadian Social Studies.. [Online]. 38(3).
3. M. Ahmedova Falsafa O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2006 434-bet.
4. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). – Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004. –85 б.

5. Назаров Қ. Қадриятлар тизими: барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси (аксиологиянинг ижтимоий-фалсафий муаммолари). Фалсафа фанлари докто-ри дис. – Тошкент, 1996.
6. Sh.Mardonov, B.Xodjayev Pedagogik aksiologiya. (o'quv qo'llanma) -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 26-bet.